



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 5 (7)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

5

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Minojiddinov A.A. Meva-sabzavot tarmog‘i korxonalarini boshqarishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish yo‘llari	8
Mirzayev A.T., Dilnozaxon M. O‘zbekistonda turizm marketingi samaradorligini baholash va uni takomillashtirishning integratsiyalashgan mexanizmi.....	12
Shavkatov A.Sh. O‘zbekistonda kichik biznes rivojlanishining institutsional va makroiqtisodiy asoslari.....	16
Махамаджанов М.М. Инновационная трансформация банковского сектора Узбекистана: общесистемные тенденции и финансовые результаты.....	20
Sativaldiyeva G.X. IFRS 16 “Ijara” xalqaro standartiga muvofiq ijara hisobidagi o‘zgarishlar.....	24
Ismailov X.M. Aloqa korxonalari moliyaviy barqarorligini ta‘minlash metodologiyasini takomillashtirish masalalari.....	28
Yusubov I.I. Mintaqada iqtisodiyotni barqarorlashtirishda raqamli xizmatlarning rivojlanishi.....	32
Saidaxmedov N.X. Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoiyatini shakllanishi va rivojlanishining zamonaviy nazariyalari.....	35
Istamqulov D.Q., Danyarova F.B. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish yo‘llari.....	40
Aipova I.I. Resurs samaradorligini baholashning nazariy usullari va ko‘rsatkichlari.....	43
Mirzaraximova A.A. Tijorat banklari tomonidan aloqa sohasini moliyalashtirish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	49
Xalmirzaev A.A. Yer va suv resurslaridan samarali foydalanishda hududiy ixtisoslashuvning ahamiyati va iqtisodiy samaradorligi.....	53
Sidikov Z.A. Sirdaryo viloyatida sanoatlashtirish jarayonining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta‘siri.....	59
Usmanova N.Y. Raqamli iqtisodiyotda menejment qarorlarini qabul qilishda innovatsion texnologiyalarning roli.....	63
Ergashev R.X., Rajabaliyeva I.A. Transport-logistika infratuzilmasini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish.....	67
Raximova D.S. Barqaror restoran amaliyotlari: oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirish va qayta ishlashning innovatsion yondashuvlari.....	70
Narzullayeva X.A. Investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishning xalqaro tajribalari.....	76
Muxitdinov Sh.Z. Kichik agrobiznes subyektlarida mahsulotlar eksportini rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillar.....	84
No‘monov O.O‘. Agrotadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatiga ta‘sir etuvchi makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy omillarni kompleks baholash.....	88
Yeshimbetov U.X. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	92
Raximova K.N. Tadbirkorlik sharoitida yashil biznesni tashkil etish va rivojlantirishining o‘ziga xos xususiyatlari	97
Хошимов П.З., Тўрахожайев Х.Х. Ислоний банкларнинг ишлаш таомойллари ва ислон молия тизимининг Ўзбекистон иқтисодиётига таатбири.....	100
Sattarov R.A. An integrated methodological framework for evaluating and forecasting interregional economic cooperation: an input-output approach (evidence from Uzbekistan).....	107
Farmanov J.Z. Mintaqada asalarichilik ekotizimining tamoyillari va ekologik-geografik xususiyatlarini takomillashtirish	111
Qurbonov A.B. Janubiy iqtisodiy rayonda qishloq xo‘jaligi orxonlarining tarkibiy o‘zgarishi va agrar kooperatsiyani rivojlantirish yo‘nalishlari.....	114
Тоштемиров Т.Т. Ўзбекистонда кичик тадбиркорлик субъектлари фаолиятини кенгайтиришда солик механизмларида фойдаланиш масалалари.....	119
Arziyev M.A. O‘zbekiston iqtisodiyotini transformatsiyalash sharoitida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari.....	122
Maxkamova S.Sh. Ekologik innovatsiyalar orqali yerni oqilona boshqarishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	127
Olimova N.X. Yashil moliyalashtirishning rivojlanish tendensiyalari hamda hozirgi amaliyoti: milliy kontekst	137
Zaylobitdinova H.X. Davlat oliy ta‘lim muassasalarining tijorat faoliyatini samarali boshqarish strategiyalari.....	141
Komilov A.I. Evolution of the catering industry in the context of digital technologies.....	145

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Sotvoldiyev N.N. Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda mehnat bozoriga ta'sir etuvchi omillar.....	149
O'rinov A.A. Sanoat tarmoqlarining investitsion imkoniyatlarini barqarorlik indikatorlari asosida boshqarish mexanizmlari.....	154
Ahmadaliyeva R.A. O'zbekistonda xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashish samaradorligi.....	158
Uzganbayeva D.T., Alimova Sh.F. The role of investment strategies in transforming small business entities into large corporate structures.....	162
Goziyev M.Sh., Abdufattoyeva M. Sun'iy intellekt asosida iqtisodiy qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish.....	167
Qobilov H., Uzganbayeva D.T. O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy tadbirkorlikning ro'li: so'nggi yillardagi islohotlar sharoitida iqtisodiy o'sish va bandlikka qo'shayotgan hissi.....	170
Sotiboldiyeva R., Uzganbayeva D.T. O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyati.....	174
Маматкулов З.Ш. Хизмат кўрсатиш фаолиятининг шакллантириш ва бошқаришда хориж тажрибаларидан самарали фойдаланишнинг инновацион йўналишлари.....	179
Shamsiddinov P., Uzganbayeva D.T. Iqtisodiyotning raqamlashtirishning afzaliklari va uning oqibatlari.....	185
Qosimov A.S. Jizzax viloyati mahallalarining qayta nomlanishi va demografik jarayonlar va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari.....	189
Qodirov A., Tulaganov E.J., Berdimurodov U.S. Inson kapitalini kapitalizatsiya qilish va samaradorligini oshirish.....	192
Saidkarimova M.I., Sobirov O.A. Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari.....	199
Saidova M.J. Sanoat transformatsiyasi sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikning o'rni (Andijon viloyati misolida)	203
Юсупов А.С., Пардаев Х.Ф. Динамическое управление международным портфелем акций: механизмы ребалансировки и преимущества глобальной диверсификации в условиях волатильности валютных рынков.....	206
Burxonov J.X., Soliyev I.I. Mehnat bozorini tartibga solishda innovatsion yondashuvlarning xorij tajribasi tahlili.....	213
Xaitbaev J.O. Mintaqa iqtisodiyotini barqarorligini ta'minlashda suv resurslaridan foydalanishning ko'p omilli ekonometrik modellari.....	217
Saidov U.S. Kichik tadbirkorlik subyektlarida ekologik innovatsiyalarni rag'batlantirishning moliyaviy yo'nalishlari.....	221
Nurmaxanmadov N.B. Iqtisodiyotning ekologiyaga ta'sir moyilligining oshib borishi muammosi.....	224
Xudayberdiyev K. Davlat xaridlarida elektron platformalar faoliyatini optimallashtirishda sun'iy intellektga asoslangan moderatsiya mexanizmlarining roli.....	230
Xolxo'jayev E.G'. Davlat xaridini tashkil etishda elektron savdolardan foydalanish samaradorligi hamda imkoniyatlari tahlili.	234
Rustamova F.A. Qishloq joylarda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy samaradorligini baholash va uni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	238
Ikromov A. Iqtisodiy jarayonlarni ekonometrik modellashtirishda integro-differensial tenglamalarning o'rni va ularni tadqiq etish.....	241
Sarimsakov B.R., Usmonov J.Q. Xorijiy mamlakatlarda inson kapitalidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida samarali foydalanish tajribalari.....	245
Maraimov I.R. O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirish va aholi turmush farovonligini oshirish.....	251
Yusupov Sh.B. Xorazm viloyatida sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini baholash va oshirish yo'llari: 2020–2025 yillar tahlili va 2030 yilga prognoz.....	256
Chintemirova D.Sh. Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari.....	260
Xusanova Z.R. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.....	265
Tajiboyev S.O., Gulimboyev S.I. Moliyaviy siyosatning investitsiya muhitiga ta'siri.....	270
Tajiboyev S.O. G'aznachilikda to'lovlarni amalga oshirish.....	275
Xaydarov M., Baxtiyorov I. Innovatsion iqtisodiyot g'oyalari va ularni oliy ta'lim tizimi orqali qo'llashning nazariy asoslari.....	279
Ким Т.В., «Зарубежный опыт развития циркулярной экономики и её роль в формировании ресурсосберегающей модели экономического развития».....	286

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Saydullayeva R.U. Analysis of financial efficiency and profitability in the green economy: the role of IAS and IFRS standards.....	292
Galatov A.A., Karimova G.A. O‘zbekistonda Islomiy moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi nobank tashkilotlar faoliyati va strategik boshqaruv tizimining tahlili.....	296
Tursunov F.U. Oliy ta‘lim sifati monitoringini takomillashtirish mexanizmlarini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari... ..	300
Yakhshiboev R.E. Retrieval-augmented generative AI for smart learning content.....	303
Ergashev S.A. Sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: ilmiy-nazariy va amaliy asoslar.....	307
Абдуллаева Р.Ғ., Тажибаева Н.Ф. Ўзбекистон иқтисодиётида инвестицияларнинг устувор йўналишлари ва ривожланиш истiqболлари.....	311
Sayfullayev J. Why organizations struggle to implement green management practices: key barriers and practical solutions.....	316
Sirojiddinov K.I. Korxonaning raqobatbardoshligini baholash usullari.....	319
Ibraximov X.S. Mintaqalarda tadbirkorlik muhitini shakllantirishda kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘rni va mexanizmlari.....	324
Tajibayev K.Q. Farg‘ona vodiysida kichik biznes sub’ektlari raqobatbardoshligini oshirishning metodologik asoslari.....	328
Abdulxakimov Z.T. Barqaror rivojlanish evolyusiyasi va tarkibiy qismlari masalalari.....	332
Pazilidinov M.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlarning raqamlashtirish tajribasi.....	337
Жураева М.З., Ахмедов Р.М. Экосистема применения системного подхода в менеджменте транспортной инфраструктуры.....	341
Ахмедов Р.М. Основные требования к разработке системного подхода в менеджменте дорожного хозяйства Республики Узбекистан.....	348
Mamasiddiqova F.X. Qishloq xo‘jaligida mahallalar ixtisosligi: nazariy asoslar, regional tahlil va rivojlantirish istiqbollari.....	353
To‘rayev A.A. Mehnat bozorini texnologik transformatsiyalash sharoitida ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlari.	358
Солиев И.И. Концептуальные основы институциональной автономии вузов в условиях модернизации системы образования Узбекистана.....	362
Xasanov S.Q. Sanoat korxonalarini rivojlantirishda modernizatsiya va klaster yondashuvining o‘rni.....	365
Murodov A. Aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirishning nazariy asoslari.....	369
Карабаев Р.З. Искусственный интеллект в цифровой экономике Узбекистана.....	374
Rasulova Sh.A. Bozor iqtisodiyotida monopoliyaning mohiyati, shakllari va uning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’siri.....	378
Salimov A.F., Rasulova Sh.A. Bozor muvozanati va unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar.....	381
Sattarova G.X. O‘zbekiston logistika bozorida yuk tashish xavflarini sug‘urta orqali kamaytirishning iqtisodiy samaradorligi.....	385
Муродхўжаева Ф.М. Махаллий саноатни шакллантиришда кластер ёндашуви ва 2030 йилгача трансформациянинг прогноз параметрлари (Наманган вилояти мисолида).....	389
Yoqubjonov R.R. Kichik biznes mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion yondashuvlar.....	396
Nasritdinov B.X. Risklarni integral baholash kichik biznesda moslashuvchan boshqaruv tizimi asbobi sifatida	400
Abdurazzoqov H.A. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining hozirgi holati va tendentsiyalari.....	406
Turgunov M.M., Soliyev I.I. Milliy innovatsion tizim samaradorligini oshirishning strategik yo‘nalishlari.....	411
Kuzimuratova D.M. O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish.....	414
Soyibjonov I.S. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish.....	419
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	423
Odinayev G‘.J. Nogironligi bo‘lgan aholi qatlamini strategik sohalarda band qilish loyihalari.....	427
Abduvahobov V.B. Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishning global standartlari va O‘zbekiston tajribasi: kompleks tahlil.....	430
Қўзиёва Н.Н. Билвосита солиқларнинг шаклланиши ва ривожланиб бориши.....	435

**O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH JARAYONINING HOZIRGI
HOLATI VA TENDENTSIYALARI**

**ТЕКУЩЕЕ СОСТОЯНИЕ И ТЕНДЕНЦИИ ПЕРЕХОДА К «ЗЕЛЕННОЙ» ЭКОНОМИКЕ
В УЗБЕКИСТАНЕ**

**CURRENT STATUS AND TRENDS OF THE TRANSITION TO A GREEN ECONOMY IN
UZBEKISTAN**

Abdurazzoqov Hojiakbar Alisher o‘g‘li

Namangan davlat universiteti, Iqtisodiyot fakulteti, 70410102- Iqtisodiyot

M.IQT-AU-24 guruh magistranti

ORCID NUMBER: 0009-0000-4849-8707

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining hozirgi holati va asosiy tendentsiyalari tahlil qilinadi (Introduction). Tadqiqotda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining nazariy va texnik salohiyati tonna neft ekvivalenti (t.n.e.) asosida baholanib, statistik va taqqoslash usullari qo‘llanildi. Olingan natijalarga ko‘ra, mamlakatning umumiy qayta tiklanuvchi energiya salohiyati 117 984 mln t.n.e.ni tashkil etadi, shundan 179,3 mln t.n.e. texnik jihatdan o‘zlashtirilishi mumkin. Eng katta ulush quyosh energiyasiga to‘g‘ri keladi, shamol va geotermal energiya esa nisbatan past, ammo istiqbolli manbalar hisoblanadi. Hozirgi o‘zlashtirish darajasi texnik salohiyatning 3 foizidan ham kam. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mamlakatda quyosh va shamol energetikasi quvvatlari jadal oshib bormoqda, xorijiy investitsiyalar hajmi kengaymoqda hamda iqtisodiy o‘sish va energiya talabi o‘rtasidagi bog‘liqlik kuchaymoqda.

Kalit so‘zlar: qayta tiklanuvchi energiya, yashil iqtisodiyot, quyosh energiyasi, shamol energiyasi, geotermal energiya, energiya salohiyati, texnik salohiyat, energetika siyosati, investitsiyalar, barqaror rivojlanish, energiya samaradorligi, O‘zbekiston.

В статье анализируется текущее состояние и основные тенденции перехода Узбекистана к зелёной экономике. В исследовании применяется оценка теоретического и технического потенциала возобновляемых источников энергии в тоннажах нефтяного эквивалента, а также методы сравнительного и статистического анализа. Результаты показывают, что общий потенциал ВИЭ составляет 117 984 млн т.н.э., из которых 179,3 млн т.н.э. являются технически освоенными. Основная доля приходится на солнечную энергетику, в то время как ветровая и геотермальная энергия имеют меньший, но перспективный потенциал. Текущий уровень освоения не превышает 3%. В обсуждении выявлены ключевые тенденции: быстрый рост мощностей солнечной и ветровой энергетики, увеличение иностранных инвестиций и усиление взаимосвязи между экономическим ростом и потреблением энергии.

Ключевые слова: возобновляемая энергия, зелёная экономика, солнечная энергетика, ветровая энергия, геотермальная энергия, энергетический потенциал, технический потенциал, энергетическая политика, инвестиции, устойчивое развитие, энергоэффективность, Узбекистан.

This article analyzes the current state and key trends of Uzbekistan’s transition to a green economy. The study evaluates the theoretical and technical potential of renewable energy sources using tons of oil equivalent and applies comparative and statistical methods. The results indicate that the total renewable energy potential amounts to 117,984 million toe, of which 179.3 million toe is technically feasible. Solar energy accounts for the largest share, while wind and geothermal energy have smaller but promising potential. The current utilization level remains below 3%. The discussion

highlights major trends, including rapid growth in solar and wind capacity, increasing foreign investments, and a strengthening link between economic growth and energy demand.

Keywords: renewable energy, green economy, solar energy, wind energy, geothermal energy, energy potential, technical potential, energy policy, investment, sustainable development, energy efficiency, Uzbekistan.

So‘nggi yillarda iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning cheklanishi va energiya xavfsizligi muammolari kuchayib, dunyo mamlakatlarini yashil iqtisodiyot modeliga o‘tishga undamoqda. Yashil iqtisodiyot atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish hamda barqaror iqtisodiy o‘tishni ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda ham iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilanmoqda. Mamlakatda quyosh radiatsiyasining yuqoriligi, shamol resurslari va geotermal imkoniyatlar ushbu sohani rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, qayta tiklanuvchi energiya salohiyati yuqori bo‘lishiga qaramay, uning amaliy o‘zlashtirilish darajasi hali yetarli emas. Bu esa mavjud resurslardan samarali foydalanish va energiya tizimida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining hozirgi holati va asosiy tendensiyalarini tahlil qilish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining nazariy va texnik salohiyatini baholashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun qayta tiklanuvchi energiya resurslarining hajmi, ularning o‘zlashtirilish darajasi hamda iqtisodiy rivojlanish bilan o‘zaro bog‘liqligi o‘rganiladi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari va yashil iqtisodiyotga o‘tish masalalari so‘nggi yillarda xalqaro ilmiy hamjamiyatda keng o‘rganilmoqda. Xususan, International Energy Agency hisobotlarida energiya tizimini dekarbonizatsiya qilishda quyosh va shamol energetikasining ustuvorligi alohida ta’kidlanadi. Ushbu manbalarda rivojlanayotgan mamlakatlar uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish nafaqat ekologik, balki iqtisodiy samaradorlikni ham oshirishi qayd etilgan.

International Renewable Energy Agency tadqiqotlariga ko‘ra, Markaziy Osiyo, jumladan O‘zbekiston, yuqori quyosh radiatsiyasiga ega hududlardan biri hisoblanadi. Bu esa quyosh energiyasidan samarali foydalanish va energetika tizimini diversifikatsiya qilish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

World Bank hisobotlarida yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida investitsiyalar, infratuzilma va institutsional islohotlarning ahamiyati alohida ta’kidlanadi. Shuningdek, energiya samaradorligini oshirish va uglerod chiqindilarini kamaytirish iqtisodiy o‘tish bilan uyg‘un olib borilishi zarurligi qayd etilgan.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili qayta tiklanuvchi energiya manbalarining yashil iqtisodiyotga o‘tishda muhim rol o‘ynashini va O‘zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Mazkur tadqiqotda O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining salohiyatini baholash va yashil iqtisodiyotga o‘tish tendensiyalarini aniqlash uchun kompleks yondashuv qo‘llanildi.

Tadqiqotning asosiy metodlari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining nazariy va texnik salohiyatini baholashda tonna neft ekvivalenti (t.n.e.) ko‘rsatkichi asosiy o‘lchov birligi sifatida qo‘llanildi. Bu usul turli energiya manbalarini yagona mezon asosida taqqoslash imkonini beradi.

Ikkinchidan, statistik tahlil usuli orqali mavjud ma’lumotlar umumlashtirildi va qayta ishlanib, energiya resurslarining hajmi hamda o‘zlashtirilish darajasi aniqlashtirildi. Bunda rasmiy va xalqaro ma’lumotlar bazalaridan foydalanildi.

Uchinchidan, taqqoslash (komparativ) tahlil usuli yordamida qayta tiklanuvchi energiya manbalari o‘rtasidagi farqlar va ustuvor yo‘nalishlar aniqlab berildi. Xususan, quyosh, shamol va geotermal energiya salohiyatlari o‘zaro taqqoslandi.

To‘rtinchidan, dinamik tahlil orqali so‘nggi yillardagi asosiy tendensiyalar, jumladan energiya ishlab chiqarish hajmi, o‘rnatilgan quvvatlar va investitsiyalar o‘sishi o‘rganildi.

Mazkur metodologiya tadqiqotning ishonchliligini ta‘minlash hamda olingan natijalarni ilmiy asoslash imkonini beradi.

Qayta tiklanadigan energiya salohiyati va uning o‘zlashtirilish darajasi.

O‘zbekiston qayta tiklanadigan energiya manbalari (QTM) nuqtai nazaridan noyob tabiiy imkoniyatlarga ega mamlakat hisoblanadi. Umumiy QTM zahirasi taxminan 117 984 million tonna neft ekvivalentini (t.n.e.) tashkil etsa, texnik jihatdan o‘zlashtirilishi mumkin bo‘lgan qism 179,3 million tonnaga yetadi.

Eng katta ulush quyosh energiyasiga tegishli: umumiy zahirasi 51 milliard t.n.e., texnik jihatdan o‘zlashtirilishi mumkin bo‘lgan qismi 177 million t.n.e. ni tashkil qiladi. Bu raqam mamlakatning yillik birlamchi energiya iste‘molidan taxminan to‘rt barobar ortiq. O‘zbekistonning mo‘tadil iqlimi va qulay joylashuvi uni sanoatda quyosh energiyasidan keng foydalanish uchun istiqbolli hudud sifatida ajratib turadi.

Shamol energiyasi bo‘yicha umumiy zahira 2,2 million t.n.e. ni tashkil qiladi, shundan texnik jihatdan foydalanish imkoni mavjud bo‘lgan qism 19 foizini qamrab oladi. Geotermal energiya zahiralarida esa 67 milliard t.n.e. bilan quyosh energiyasini ham ortda qoldiradi, biroq bu sohadagi texnologiyalar hali yetarlicha rivojlanmaganligi sababli hozircha faqat 0,3 million t.n.e. ni ishga solish mumkin. Binobarin, geotermal energetika uzoq muddatli istiqbol sifatida ko‘rib chiqilishi lozim [1].

1-jadval.

O‘zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalari salohiyati [1]

Ko‘rsatkich	Asl raqam	Tahliliy sharh
Quyosh (umumiy zahira)	51 Gtne	51 mlrd t.n.e. — eng katta ekologik boylik; yillik iste'moldan yuzlab baravar ko‘p
Quyosh (texnik qismi)	177 Mtne	Amalda ishlatish mumkin bo‘lgan qism — yillik iste'moldan 4 barobar ko‘p
Shamol	2,2 Mtne	Texnik jihatdan 19% (0,42 Mtne) o‘zlashtirilishi mumkin
Geotermal (umumiy)	67 Gtne	Ulkan zahira, lekin texnologiya rivojlanmagan — uzoq muddatli istiqbol
Geotermal (texnik qismi)	0,3 Mtne	Hozircha 300 000 t.n.e. — texnologiya yetarli darajada rivojlanmagan
Umumiy QTM zahirasi	117 984 Mtne	~118 mlrd t.n.e. — yashil iqtisodiyotning mustahkam tabiiy asosi
Texnik salohiyat (jami)	179,3 Mtne	To‘liq o‘zlashtirish 2030 maqsadlarini ortiqcha bajaradi; hozirgi o‘zlashtirish darajasi <3%

Eslatma: Mtne = Million tonna neft ekvivalenti, Gtne = Milliard tonna neft ekvivalenti

Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonning qayta tiklanadigan energiya salohiyati nafaqat mamlakatning o‘z ehtiyojlarini qoplash, balki istiqbolda mintaqaviy energetika bozorida faol ishtirok etish imkonini ham beradi. Biroq hozirgi o‘zlashtirish darajasi texnik salohiyatning 3 foizidan ham oshmaydigan darajada bo‘lib, bu tarkibiy muammo sifatida baholanishi lozim.

1. Quyosh energiyasi — asosiy salohiyat.

Quyosh energiyasi O‘zbekistonning eng asosiy qayta tiklanadigan energiya manbai hisoblanadi. IEA ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatdagi quyosh energiyasining umumiy (gross) zahirasi 51 Gtne ni tashkil etadi. Texnik jihatdan o‘zlashtirilishi mumkin bo‘lgan qism esa 177 Mtne ga tengdir. Bu raqam mamlakat yillik birlamchi energiya ta’minotidan (2019-yilda 47,1 Mtne) 3,8 baravar ko‘pligini anglatadi [2]. O‘zbekiston yiliga o‘rtacha 300 dan ortiq quyoshli kun bilan ta’minlanadi. Global gorizonttal nurlanish (GHI) ko‘rsatkichi bo‘yicha mamlakatning o‘rtacha qiymati kuniga 4,52 kVt soat/m² ni tashkil etadi — bu Ispaniya va Italiya kabi Yevropa mamlakatlari bilan taqqoslanadigan yoki undan yuqori daraja [3].

2. Shamol energiyasi.

Shamol energiyasining umumiy zahirasi 2,2 Mtne deb baholanmoqda. Texnik jihatdan bu zahiraning 19% i, ya’ni 0,42 Mtne o‘zlashtirilishi mumkin. So‘nggi mezosmasshtabli modellashirish tadqiqotlari O‘zbekistonda avval taxmin qilinganidan ko‘proq shamol resurslari borligini ko‘rsatdi. Eng yuqori shamol salohiyati bo‘lgan hududlar — Toshkentning shimoli-sharqidagi tog‘ zonasi, Samarqand va Jizzax o‘rtasidagi tog‘ tizmalari, shuningdek Navoiy viloyati va Qoraqalpog‘iston [4].

2. Geotermal energiya.

Geotermal energiyaning umumiy zahirasi 67 Gtne bo‘lib, bu quyosh umumiy zahirasidan ham ko‘pdir. Ammo texnik jihatdan hozircha faqat 0,3 Mtne o‘zlashtirilishi mumkin — bu umumiy zahiraning atigi 0,0004% ini tashkil etadi. Bunday katta tafovutning sababi — geotermal energiyadan foydalanish uchun zarur bo‘lgan oddiy va iqtisodiy jihatdan samarali texnologiyalar hali yetarli darajada rivojlanmaganligi. O‘zbekistondagi geotermal suvlarning o‘rtacha harorati 45,5°C bo‘lib, Buxoro (56°C) va Sirdaryo (50°C) viloyatlarida eng yuqori ko‘rsatkichlar qayd etilgan. Asosiy istiqbol hududi — Farg‘ona vodiysi [5].

Qayta tiklanadigan energetika quvvatining jadal o‘shishi.

Eng yaqqol tendentsiya — quyosh va shamol energetikasi o‘rnatilgan quvvatining keskin oshishi. 2023-yilda quyosh energetikasi o‘rnatilgan quvvati 253 MVt ni tashkil etgan bo‘lsa [6], 2024-yilda bu ko‘rsatkich 2 600 MVt ga yetkazish rejalashtirilgan edi. 2025-yilning yanvar–oktabr oylarida quyosh va shamol elektr stansiyalari tomonidan 9 000 GVt soatdan ortiq elektr energiyasi ishlab chiqarildi [7] — bu 2023-yilga nisbatan 14 baravar ko‘pdir. Shu tarzda qayta tiklanadigan manbalar bir yil ichida umumiy elektr ishlab chiqarishning 10 foizidan ortig‘ini ta’minlashga o‘tdi. 2024-yilga kelib, xorijiy investorlar tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalarda 2 567 MVt quyosh va 900 MVt shamol quvvati (umumiy o‘rnatilgan quvvatning 16 foizi) rivojlanish bosqichida edi. 2020–2024-yillar oralig‘ida quyosh, shamol va energiya saqlash qurilmalariga 11,6 mlrd dollar hajmida tender shartnomalar imzolandi — bu fosil yoqilg‘i loyihalari uchun ajratilgan 3,3 mlrd dollardan 3,5 baravar ko‘pdir.

Xorijiy investitsiyalar tendentsiyasi.

Yashil energetika sohasiga yo‘naltirilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar izchil o‘shish tendentsiyasini namoyish etmoqda: 2020-yildan 2023-yilgacha Samarqand viloyatiga yo‘naltirilgan QTM investitsiyalari 157 mln dollardan 486 mln dollarga — 3,1 baravar oshdi. 2023-yilda O‘zbekiston qayta tiklanadigan energiya loyihalari bo‘yicha 2,8 mlrd dollarlik shartnomalar imzoladi. QTM bozori hajmi 2023-yilgi 2,95 mlrd dollardan 2031-yilga kelib 8,47 mlrd dollarga yetishi prognoz qilinmoqda (yillik o‘shish sur’ati — 14,1%) [8].

YaIM va yashil o‘tish o‘rtasidagi bog‘liqlik.

O‘zbekiston iqtisodiyotining umumiy o‘shishi va yashil o‘tish jarayoni o‘zaro chambarchas bog‘liq. Mamlakat YaIMi 2021–2023-yillarda 69,2 mlrd dollardan 91 mlrd dollarga oshdi va 2030-yilga kelib 200 mlrd dollarga yetishi kutilmoqda [9]. Bunday jadal iqtisodiy o‘shish sharoitida elektr energiyasiga talabning 2030-yilga kelib ikki baravar oshib, 120 TVt soatga yetishi prognoz qilinmoqda.

Energiya intensivligi ko‘rsatkichi bo‘yicha O‘zbekiston hali yuqori o‘rinda turibdi: YaIM birligi uchun energiya sarfi jahon o‘rtacha darajasidan 50 foiz yuqori. Shu bilan birga, ijobiy tendentsiya ham mavjud: YaIMning uglerod zichligi 2021-yilda allaqachon 2010-yilgi ko‘rsatkichdan 51 foizga past edi, ya’ni Parij bitimi majburiyati amalga bajarilgan. Shunday bo‘lsa-da, iqtisodiy o‘shish bilan birga mutlaq emissiyalar ko‘paymog‘i ehtimoli yuqori — bu kelgusida

kuzatuvni talab etadigan tendentsiya. Yashil investitsiyalarning iqtisodiy samarasi ham aniqlanmoqda: QTM ulushini 25 foizga yetkazish yillik 3 mlrd m³ tabiiy gaz tejash imkonini beradi. Bu o‘z navbatida eksport salohiyatini oshiradi va shu bilan birga energiya xavfsizligini mustahkamlaydi [10].

Olingan natijalar O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining salohiyati yuqori ekanini, biroq ularni amaliy o‘zlashtirish darajasi hali yetarli emasligini ko‘rsatadi. Nazariy va texnik salohiyat o‘rtasidagi tafovut mavjud bo‘lib, bu holat asosan institutsional, texnologik va investitsion cheklovlar bilan bog‘liq.

Tahlillarga ko‘ra, quyosh energetikasi mamlakat uchun eng ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. Quyosh radiatsiyasining yuqoriligi va quyoshli kunlarning ko‘pligi ushbu sohani rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. So‘nggi yillarda quyosh elektr stansiyalarining kengayishi bu yo‘nalishdagi islohotlar samaradorligini tasdiqlaydi.

Shamol energetikasi bo‘yicha esa salohiyat hududlar kesimida notekis taqsimlangan. Ayrim hududlarda resurslar yuqori bo‘lsa-da, umumiy rivojlanish darajasi past. Bu holat infratuzilma yetishmasligi va yetarli geolokatsion tadqiqotlar olib borilmaganligi bilan izohlanadi, shuning uchun rivojlantirishni hududiy yondashuv asosida amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Geotermal energiya bo‘yicha esa katta nazariy salohiyat mavjud, biroq texnik o‘zlashtirish darajasi past. Bunga zamonaviy texnologiyalar yetishmasligi va yuqori investitsiya talab etilishi asosiy sabab bo‘lib, ushbu yo‘nalish uzoq muddatli istiqbolda muhim alternativ manba bo‘lishi mumkin. Umuman olganda, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining rivojlanishi ekologik barqarorlikni ta‘minlash bilan birga, mamlakatning energiya xavfsizligini mustahkamlash va iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish uchun zarur tabiiy va iqtisodiy sharoitlar mavjudligini ko‘rsatdi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari yuqori salohiyatga ega bo‘lib, ular mamlakatning uzoq muddatli energiya ehtiyojlarini qondirish va energiya xavfsizligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillarga ko‘ra, quyosh energiyasi eng istiqbolli yo‘nalish bo‘lib, shamol va geotermal energiya esa hozircha kamroq o‘zlashtirilgan, biroq kelajakda muhim o‘rin tutishi mumkin. Shu bilan birga, mavjud texnik salohiyatdan foydalanish darajasi pastligi resurslardan to‘liq foydalanilmayotganini anglatadi. Shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish iqtisodiy o‘rish, ekologik barqarorlik va energiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Biroq bu jarayon texnologik, investitsion va infratuzilmaviy muammolar bilan cheklanmoqda.

Umuman olganda, O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish katta salohiyatga ega bo‘lib, ushbu yo‘nalishda izchil islohotlarni davom ettirish mamlakatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. International Renewable Energy Agency; O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. Qayta tiklanadigan energiya statistik ma’lumotlari va milliy hisobotlar (2020–2024).
2. IEA (2021). *Uzbekistan Energy Profile*. Paris: IEA. — Havola: iea.org/reports/uzbekistan-energy-profile/sustainable-development
3. IEA (2021). *Solar Energy Policy in Uzbekistan: A Roadmap*. Paris: IEA (Global Solar Atlas asosida)
4. IEA (2021). *Uzbekistan Energy Profile*. Paris: IEA.
5. IEA (2021). *Uzbekistan Energy Profile*. Paris: IEA.
6. Mordor Intelligence (2024). *Uzbekistan Renewable Energy Market*. / O‘zbekiston Energetika vazirligi, 2024.
7. O‘zbekiston Energetika vazirligi (2025), keltirilgan: Energyprof Newsletter, dekabr 2025. — energyprof.substack.com
8. Verified Market Research (2024). *Uzbekistan Renewable Energy Market*.
9. Prezident Sh.Mirziyoyev nutqi, Oliy Majlis, 2024-yil 20-noyabr (Xinhua, kun.uz orqali tasdiqlangan).
10. O‘zbekiston Bosh konsulligining rasmiy bayonoti (Aktau, 2024). — uzconsulate-aktau.kz